# INGLIZ TILINI O‘RGANUVCHI TALABALARGA YOZISH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISHDA GRAMMATIKANING AHAMIYATI

**Abdurasulova Sadoqat Furqat qizi**
*O‘zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti talabasi*
*E-mail: abdurasulova7878@gmail.com*
*Tel: (95) 9755025*
**Jumayeva Sadbarg Mirolimovna**
*Ilmiy rahbar: O‘zbekiston Davlat Jahon tillari universiteti o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Yozish - til o‘rganish jarayoninig ajralmas qismi bo‘lib, grammatika esa bu jarayonning poydevori hisoblanadi. Yozma nutqda grammatika qoidalariga amal qilish aniqlik va aniq ifodani ta’minlaydi.To‘g‘ri grammatik qoidalar bilan yozilgan matnlar o‘quvchilar uchun muallifning fikrini to‘g‘ri tushunishga yordam beradi. Ushbu maqolada asosiy e’tibor grammatikaning yozish ko ‘nikmasidagi o‘rniga, ya’ni yozuvdagi jumlalar turi va ularning xilma-xilligi, punktuatsiya, bog‘lovchi so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llay olish mahorati, yozuv kontekstida grammatik qo‘llanmalarni o‘rgatish usullari hamda tadqiqotchilarning va tilshunos olimlarning bu jarayon haqidagi fikrlariga qaratiladi.*

**Kalit so‘zlar:** *grammatik qoidalar, metodik yondashuvlar, qo‘llanmalar, punktuatsiya, jumla, tahlil jarayoni.*

**Annotation:** *Writing is an integral part of the language learning process, and grammar is the foundation of this process. Adhering to grammatical rules in written speech ensures clarity and precise expression. Texts written with correct grammatical rules help readers accurately understand the author's thoughts. This article focuses on the role of grammar in writing skills, namely the types of sentences and their variety, punctuation, the ability to correctly use conjunctions, methods of teaching grammatical guidelines in the context of writing, and the opinions of researchers and linguists on this process.*

**Keywords:** *grammatical rules, methodological approaches, guidelines, punctuation, sentence, analysis process*

Grammatika- bu tilning tuzilishi va tartibiga oid qoidalar to‘plami bo’lib so‘zlar, gaplar, so‘z birikmalari va ularning o‘zaro aloqalarini belgilaydi. Grammatika tilning to‘g‘ri ishlashini ta’minlaydi. Barcha tillar o‘z grammatikasiga ega va til egalari bir-birlari bilan erkin muloqot qila oladilar. Ingliz tili ona tili sifatida biladigan talabalar ingliz tilining grammatikasini yaxshi biladilar va ingliz tilida mazmunli jumlalar tuzib,

so‘zlarning ma’nolarini tushuna oladilar. Ona tilisi ingliz tili bo‘lmagan va ikkinchi til sifatida ingliz tilini o‘rganayotgan talabalar uchun yozish ko‘nikmasini rivojlantirishda eng muhim jarayonlardan biri bu grammmatikadir. Ta’lim muassasalarida talabalarga yozish ko‘nikmasini oshirishda turli xil metodik yondashuvlar qo‘llanilishi mumkin. Ammo grammatikaning roli nafaqat yozish ko‘nikmasini yaxshilsh jarayonida, balki tinglash, o‘qish va gapirishda ham muhim.

Yozuvdagi jumlalarning turlari va xilma-xilligi yozuv ko‘nikmasini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Talabalar o‘z fikrlarini aniq va batafsil ifodalash uchun murakkab va oddiy jumlalarni qo‘llay olish imkoniyatiga ega bo‘ladilar, chunki grammatik qoidalarni to‘g‘ri bilish turli xil jumlalarni yaratishda yordam beradi. Talabalar oddiy jumlalarni grammatik qoidalar yordamida murakkab shaklga aylantirishi , yoki aksincha, murakkab jumlalarni grammatik qoidalardan to‘g‘ri foydalangan halda sodda jumlaga o‘zgartirishi mumkin.

Bevosita punktuatsiyaning ham yozish ko‘nikmasida katta o‘rni bor. Punktuatsiya qoidalariga rioya qilish yozuvda aniqlikni ta’minlaydi. To‘g‘ri qo‘llanilgan vergul, nuqta, tire va boshqa punktuatsiya belgilari matnni o‘qish va tushunishni osonlashtiradi. Punktuatsiyaning noto‘g‘ri qo‘llanilishi esa o ‘quvchida chalkashlik va noto‘g‘ri tushunchalarga olib kelishi mumkin.

Bog‘lovchi so‘zlarni to‘g‘ri qo‘llay olish matnda fikrlar va jumlalarni mantiqiy bog‘lash imkonini beradi. Bog‘lovchi so‘zlar jumlalar va paragraflar orasidagi bog‘lanishni ta’minlab, matnning umumiy mantiqiy tuzilishini mustahkamlaydi. Va, yoki, lekin, shuning uchun, garchi, agar kabi ko‘plab bog‘lovchilardan foydalanish jumlalarimizni aniq va mazmunli qiladi.

Grammatik mashqlar, yozma ishlar, matnlarni tahlil qilish va yozma ishlarni tahrirlash kabi usullar grammatik qo‘llanmalar orqali yozish ko‘nikmasini rivojlantirish usullari hisoblanadi. Misol uchun, matnlarni tahlil qilish orqali grammatik xatoliklarni topish va ularni tuzata olish yozish ko‘nikmasini oshirishda katta ahamiyatga ega.

“Yozuv bilan til o‘zaro chambarchas bog ‘liq. Biror tilni shu tilning yozuvini o‘rganmasdan, yoki aksincha, biror yozuvni shu yozuv tegishli bo‘lgan tilni va uning grammatikasini bilmasdan o ‘rganish mumkin emas”, deb fikr bildirishgan tilshunos olimlar O‘.Sharipova va I.Yo‘ldoshev ‘Tilshunoslik asoslari” o‘quv qo‘llanmasida. Darhaqiqat, biror tilni o‘rganish uchun yozuv va grammatika juda muhim omil.

Ushby maqola yozish mahoratini rivojlantirish uchun grammatikaning ahamiyatini va uning ta’limdagi barcha bosqichlarda zarurligini ta’kidladi. Grammatikani o‘rganish hech qachon ortga surilmasligi kerak, chunki barchaga tushunarli va samarali yozuv ko‘nikmasi uchun bu muhim

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:


1. Alimardonova M. “The role of grammar in improving student’s writing skills”. World Bulleten of Management and Law (WBMl) Available Online at https://www.scholarexpress.net. 2021
2. Ergashova, S., Yadgarova, L., Ziyodulloeva, M., Norova, F., & Yuldashova, N. (2022). The principles of using computer technologies in the formation and development of students' language skills. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 13(Special Issue 6). https://www.pnrjournal.com/index.php/home/article/view/2116
3. Faidel M.”The effect of grammar teaching methods on students’ writing skill”. <International Journal online of Humanities>2021
4. Isakulova , B. K. (2024). Role of leadership style in teaching process. *GOLDEN BRAIN*, *2*(1), 615–619. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/6060
5. Isakulova, B. K. (2023). Teaching a foreign language through didactic games to preschoolers. *GOLDEN BRAIN*, *1*(11), 234–239. Retrieved from https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/3161
6. Isakulova, B. K. (2023). The importance of teaching children English with early childhood with the help of game learning methods. *International Journal of Advanced Research in Education, Technology and Management*, 2(4), 352–360. https://doi.org/10.5281/zenodo.7813228, https://ijaretm.com/index.php/ij/article/view/339
7. Isakulova, B. K. (2024). Didactic games as a means of learning preschool children learn English. *Zenodo*. https://doi.org/10.5281/zenodo.10518781 http://multidiciplinaryjournal.com/index.php/mm/article/view/104
8. M.Rama Priya & Dr. K V Divya. ”Improving writing skills-the role of grammar”.Volume III.2017.
9. Tuxtayevich, K. I. ., Ahmatovna, P. S. ., Turgunbayevna, M. N., Rasulovna, R. M. ., Qizi, T. F. R. ., & Qizi, Y. N. A. . (2024). Different Approaches to Enhance Critical Thinking in Digital Education. *SPAST Reports*, *1*(7). https://spast.org/ojspath/article/view/5086
10. Yo‘ldoshev.I, Sharipova. O‘. “Tilshunoslik asoslari” Toshkent-2006
11. Yuldashova , N. A. qizi, & Ziyadulloyeva , M. S. qizi. (2024). Essence of developing learners’ communicative competence. *Golden Brain*, *2*(1), 572–575. Retrieved fromhttps://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/6050